KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 30 (560) 2025-YIL, 5-AVGUST

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-iyul kuni maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Bu judayam dolzarb, ko'pchilik aholiga daxldor masala. Chunki korrupsiyaviy holatlarning 75 foizi shahar va tumanlarda maishiy shaklda bo'lyapti.

Shu bois 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida bu illatga barham berish vazifasi qo'yilgan edi. Shu maqsadda, Prezidentning 21-apreldagi farmoni bilan, Bosh prokuraturada korrupsiya omillarini tahlil qilish bo'limi tashkil qilindi. Hududlarga muntazam chiqib, bunday omillar o'rganib borilmoqda.

Prokuratura tizimidagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va ilmiy-tadqiqot markazida 200 dan ortiq mutaxassis ilm va tahlil bilan shug'ullanyapti. Umuman, huquq-tartibot idoralarida 100 mingdan ziyod xodim korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlayapti.

Lekin ko'p hollarda bu illatning sabablari chetda qolib, oqibati bilan kurashilyapti. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaydigan preventiv choralar hali yetarli emas. Har kuni odamlarning ishi tushadigan hokimlik, kadastr, bank va soliq idoralarida byurokratiya, "korrupsiyaviy tuynuklar" to'liq yo'qolgani yo'q.

Taqdimotda shu boradagi qo'shimcha chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yurtimizda 43 ta nazorat idorasi bor. Hamma vazirliklarda komplayens nazorat bo'limlari tashkil etilgan. Avvalo, ularning samaradorligini oshirish vazifasi qo'yildi. Vazirlik va idoralar huzuridagi inspeksiyalarning bu boradagi faoliyatiga ham tanqidiy munosabat bildirildi.

Prezidentimiz korrupsiyaning faqat kamaygani emas, qanchasining oldi olinganiga qarab, davlat idoralari faoliyatini baholash kerakligini ta'kidladi.

Yer ajratish bo'yicha shaffof tizim joriy qilingan. Lekin, joylarda bu borada noqonuniy xatti-harakatlar haligacha uchrab turibdi. Shu bois kadastr, "O'zbekkosmos", qurilish va boshqa tegishli tashkilotlar ma'lumotlarini tahlil qilib, bunday holatlarga butunlay chek qo'yish shartligi ko'rsatib o'tildi.

Prokuratura tizimini to'liq raqamlashtirish va barcha sohalar ustidan "raqamli nazorat" o'rnatish zarurligi ta'kidlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida parlamentning mas'ul qo'mitalariga mahallagacha tushib, korrupsion holatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish, davlat xaridlarida to'g'ridan to'g'ri shartnomalarni kamaytirish, yoshlar o'rtasida korrupsiyaga murosasizlik muhitini shakllantirish kabi dolzarb masalalarda tavsiyalar berilgan edi.

Taqdimotda bunga mas'ullar bajarilgan ishlar to'g'risida axborot berdi.

"KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI"

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati" loyihasi doirasidagi sahifa

GRANT TADBIRI

LOYIHA TAQDIMOTI O'TKAZILDI



JORIY YILNING 31-IYUL KUNI ANDIJON SHAHRIDAGI YOSHLAR MARKAZIDA O'ZBEKISTON OLIY MAJLISI HUZURIDAGI FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMOAT FONDI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN "ADOLAT MEZONI" GAZETASINING "KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI" NOMLI LOYIHA TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI.

"Adolat mezoni" gazetasi muharriri M.Artikova so'z olib, mazkur tadbirning tashkil etilishi va undan ko'zlangan maqsad loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlar va o'tkaziladigan tanlovlar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdi.

Andijon shahar prokurorining katta yordamchisi Zulfiya Pattiyeva 2010-yildan buyon "Adolat mezoni" gazetasi bilan yaqin hamkorlikda ishlab kelinayotgani xususida fikr bildirib, "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyihada ham faol hamkorlik qilishga tayyor ekanligini ma'lum qildi. Shuningdek, korrupsiyaning keltirib chiqaruvchi omillar va ularning ayanchli oqibatlari to'g'risida so'z yuritib, tadbir ishtirokchilariga aniq misollar bilan ma'lumotlar berib o'tdi.

Bundan tashqari, jurnalist A.Qurbonov so'z olib Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borish har bir shaxsning fuqarolik burchi ekanligi, bu borada jurnalistlar faol bo'lishi kerkligini ta'kidladi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar o'zlarining qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan atroflicha javob oldilar.

Z.QODIROV,
"Adolat mezoni" muxbiri

KORRUPSIYAGA QARSHI BARCHA BIRDEK KURASHISHI ZARUR!

Bugungi kunda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash ayniqsa maishiy korrupsiya qarshi kurash va uni oldini olish borasida davlatimiz rahbari boshchiligida keskin choralar ko'rib borilmoqda.

Maishiy korrupsiya bugungi kunda nafaqat davlat idoralari balki eng oddiy insonlarni munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xavfli illatga aylanib bormoqda.

Eng achinarlisi, bu illat fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini yemiradi, adolatni zaiflashtiradi, islohotlarni tomir otishiga jiddiy to'siq bo'ladi.

Dunyoning 160 ortiq davlatlarida mana shu illatga qarshi kurash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali-hamon korrupsion holatlarni tag-tomiri bilan yo'q qilinmaganligi achinarli hol albatta.

Bugungi kunda Respublikamizda ham maishiy korrupsiya qarshi kurashish borasida keskin choralar ko'rilib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz shaxsan o'zi hisobdorlik va ochiq muloqotni joriy etilishini nazorat qilib bormoqda.

Bu borada 2021-2025-yillar mo'ljallangan milliy strategiya, prokurorlik nazorati vakolatlarini kengaytirish to'g'risidagi Prezident farmoni, davlat xizmatchilarining daromadini va mol-mulkini deklaratsiyalash Qonuni korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy vositaga aylandi.

Kadastr nazorat platformasida Yer nazorat platformasi ishga tushirilishi natijasida geolokatsiya, raqamli nazorat kuchaytirilishi natijasida, noqonuniy egallangan yer maydonlarini davlat egaligiga qaytarilishi ta'minlanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish qonunlar bilan emas balki jamiyat bilan birga olib borilishi lozim.

Bu borada prokuratura organlariga salmoqli ishlar amalga oshirilib fuqarolar bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Xususan, shahar prokuraturasiga ishonch telefon va mobil ilova orqali 278 ta fuqarolarning murojaatlari qabul qilingan va har bir murojaat e'tiborda va tahlilda.

O'tgan 2024-yildan buyon korrupsiyaga qarshi kurashishga katta e'tibor qaratilishi bu yillarda korrupsiya qarshi kurashish borasida ko'plab reyd tadbirlar o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

Xususan, o'tkazilgan tadbirlar natijasida o'tgan 2024-yilda 30 ta holatda joriy yilning 6 oy davomida 15 ta holatda jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

O'tgan 2024-yilda 6 ta holatda yer munosabatlari bilan bog'liq, 6 ta holatda huquqni muhofaza va nazorat qiluv organ xodimlariga pora taklif qilish, 2 ta maktabgacha va maktab ta'lim sohasida, kredit ajratilishi bilan bog'lik holatda 3 ta (fuqarolar), bandlik, soliq, gaz, turli tashkilotlarga ishga, oliy ta'limga o'qishga olib kirib qo'yish masalalarida soha xodimlari va boshqa sohaga aloqasi bo'lmagan fuqarolar tomonidan korrupsion jinoyatlar sodir etilgan.

2025-yilda 2 ta holatda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga pora taklif qilish, yer munosabatlarida 2 ta, nogironlik nafaqasi uchun hujjat tayyorlab berish uchun 2 ta holatda, maktab va maktabgacha ta'lim sohasida ishga va maktabga qabul qilish bilan bog'liq holatda 2 ta, ishga va oliy ta'limga o'qishga olib kirish, elektr tarmoqlaridagi ko'rsatgichlarini kamaytirib berish holatlari bo'yicha 1 tadan korrupsion holatlar aniqlangan va ularning barchasiga jinoyat ishlari qo'zg'atilib, jinoyat ishlari ayblov xulosalari bilan sud muhokamasiga yuborilishi ta'minlangan.

Ko'rinib turibdiki yer, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy sohada, uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida sezgir darajada korrupsion holatlar yuzaga kelmoqda.

Shunday ekan, mana shu sohada davlat idoralarida shaffoflikni oshirish, davlat xizmatchilari o'rtasida halollik konsepsiyasi bo'yicha profilaktik tadbirlarni kuchaytirsak, shuningdek fuqarolar, keng jamoatchilikni mas'uliyatini oshirsak, fuqarolarning huquqiy savodxonligini yuksaltirsak, davlatimiz korrupsiya kabi illatdan xoli davlatga aylanishiga ishonchim komil.

Zulfiyaxon PATTIYEVA,
Andijon shahar prokurorining katta yordamchisi.

«DUNYO SADOLARI» – 2025

FESTIVALGA QIZG‘IN TAYYORGARLIK KO‘RILMOQDA



Andijonning eng xushmanzara go‘shasi Xonobod shahrida shu yilning 15-17-avgust kunlari “Dunyo sadolari” III xalqaro milliy estrada san’ati festivali bo‘lib o‘tadi. Ayni kunlarda mazkur festivalga tayyorgarlik ishlari qizg‘in olib borilmoqda.

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Xonobod shahrida uchinchi bor o‘tkazilayotgan “Dunyo sadolari” xalqaro milliy estrada san’ati festivalida dunyoning qator davlatlaridan mashhur qo‘shiqchilar, yurtimizning estrada yulduzlari ishtirok etishi kutilmoqda, - deydi Xonobod shahar hokimi vazifasini bajaruvchi Elyorbek Xolmirzayev. – Har yili o‘tkazilishi belgilangan mazkur festival shubhasiz, O‘zbekistonning xalqaro san’at maydondagi nufuzini yanada oshiradi.

Shu kunlarda Andijon viloyati hokimligi rahbarligida mazkur festivalga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

O‘tgan yillar tajribasidan kelib chiqib, asosiy tadbirlarni o‘tkazish uchun xalq orasida “Topolino” deb nom olgan, shaharning Kampirovot mahallasi hududidan keng maydon tanlab olindi.

Shaharning kirish qismidan Kampirovot suv omboriga olib boruvchi yo‘l bo‘yida joylashgan ushbu maydonning 5 gektar qismi tekislanib, asfaltlandi. Umumiy uzunligi 5 kilometr bo‘lgan mazkur ko‘cha “7 kun/24 soat” tartibda ishlaydigan zamonaviy turizm ko‘chasiga aylantirilmoqda.

Ushbu yo‘nalish bo‘yicha yashil hududlar, piyodalar yo‘laklari, sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi ko‘plab qulay infratuzilma obyektlari yaratilishi rejalashtirilgan.

– Kengligi 9 metr bo‘lgan avtomobil yo‘lning o‘rtasi gulzor yo‘lak bilan ajratildi, - deydi Andijon viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi boshlig‘i Mirzohid Nurmatov. – Ikki tomonda piyodalar yo‘lakchasi tashkil etilib, yo‘l chetlariga lotoklar o‘rnatildi. Hozirga qadar yo‘lning 2 kilometrdan ortiq qismiga sifatli tarzda asfalt-beton qoplamasi yotqizildi. Festival boshlangunga qadar yo‘lning belgilangan qismida qurilish-ta’mirlash ishlari to‘la yakunlanadi.



Elektr ta’minoti korxonasi ishchi va mutaxassislari tomonidan yo‘lning ikki chetiga maxsus temir-beton ustunlar o‘rnatilib, yoritish chiroqlari qo‘yilmoqda.

Maydon ro‘parasi, yo‘l bo‘yida tamaddixona, kafe, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etilmoqda. Bolalar o‘ynaydigan maydonchalar, shuningdek, kutubxona qurib bitkazildi.

– Viloyat hokimining tashabbusi bilan zamonaviy, ixcham, bir vaqtning o‘zida ko‘plab kitobxonlarga xizmat ko‘rsatuvchi kutubxona qurilib, foydalanishga topshirildi, - deydi Xonobod shahar Axborot-kutubxona markazi kutubxonachisi Durdona Hasanova. – Hozirda kutubxona 1 ming 100 dan ortiq badiiy kitoblar bilan to‘ldirildi. Bu yerda mehmonlar, sayyohlar kitob o‘qib, dam olish vaqtlarini yanada mazmunli o‘tkazishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Zamonaviy turizm ko‘chasiga aylanayotgan yo‘l yoqasi bo‘ylab 98 gektar maydonda sun’iy ko‘l, mehmonxona, amfiteatr, sport maydonlari va boshqa dam olish maskanlari barpo etilayotganligi ushbu hududni haqiqiy turizm maskaniga aylantiradi.

Shu kunlarda ushbu hududda sun’iy ko‘lni barpo etish ishlari qizg‘in olib borilmoqda. Kelgusi yilning may oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan ushbu yirik obyektda har kuni 60 dan ortiq turli maxsus va og‘ir texnika vositalari, 100 nafardan ziyod quruvchi hamda mutaxassislar ish olib bormoqda.

Yaqin kunlarda festivalning asosiy tadbirlari bo‘lib o‘tadigan katta maydonga maxsus sahna o‘rnatiladi, tungi yoritish chiroqlari bilan bezatiladi.

Shuningdek, festival doirasida Alisher Navoiy nomli Xonobod shahrining markaziy madaniyat va istirohat bog‘ida ham qator tadbirlar o‘tkaziladi. Hozirda bog‘ hududi viloyatning barcha tuman va shaharlariga ajratib berildi.

Belgilangan joylarni har bir tuman, shahar tarixiy an’analari, hududning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, milliy ko‘rinishda bezamoqda. Bundan tashqari, milliy liboslar, hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmalari, savdo rastalari tashkil etilmoqda.

– Tashkil etilgan ko‘rgazmaga o‘zimiz tayyorlagan milliy liboslar – do‘ppi, ayollar nimchalari savdosini tashkil etdik, - deydi jalaquduqlik hunarmand-tadbirkor Ixtiyorbek Mirzaahmedov. – Maqsadimiz festival mehmonlari o‘rtasida milliy liboslarimizni keng targ‘ib etishdir.

Festival kunlari Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida badiiy jamoalar, el suygan san’atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, milliy va dorbozlik o‘yinlari, folklor jamoalar chiqishlari, teatr tomoshalari, hunarmandlar asarlari namoyishi, polvonlar o‘rtasidagi kurash musobaqalari, osh tanlovlari, qishloq xo‘jaligi hamda mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari savdo yarmarkalari tashkil etiladi.

Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov rahbarligida festivalning barcha tashkiliy masalalarini hal etish bo‘yicha shtab tashkil etilgan bo‘lib, tashkiliy va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, festival mehmonlari va xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi tarjimon, volontyor hamda gidlarni tayyorlash bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun xalqaro festivalga tayyorgarlik ishlari qizg‘in olib borilmoqda. Xonobod shahrida bo‘lib o‘tadigan “Dunyo sadolari” III xalqaro milliy estrada san’ati festivalida jahon hamda yurtimizning qator estrada yulduzlari ishtirok etadi.

Faxriddin UBAYDULLAYEV, Zuhriddin UMRZOQOV (surat), O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zolari.

TRANSCHEGARAVIY MULOQOT

«AYOLLAR – O‘ZGARISHLAR YETAKCHISI» LOYIHASINING TAQDIMOTI



Andijon shahrida “Yuksalish” harakati viloyat bo‘linmasi va Search for Common Ground xalqaro tashkilotining moliyaviy ko‘magida amalga oshirilayotgan “Ayollar – o‘zgarishlar yetakchisi” loyihasi doirasida “Transchegaraviy muloqot” davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda NNT vakillari, o‘qituvchilar, mahalla raislari, ma’naviyat sohasi vakillari hamda OAV xodimlari qatnashdi.

Shuningdek Qirg‘iziston Respublikasi, Jalolobod viloyatida faoliyat yurituvchi «Ayirma» va «Qishloq maslahat xizmati» jamoat fondi ishtirok etdi.

Loyihada ishtirok etgan Jalaquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasidagi «Neftchilar» mahallasidan 20 nafar faol ayollar ham tadbirga tadbirga taklif etildi.

Davra suhbatida viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, O‘zNNTMA Andijon viloyati hududiy bo‘linmasi, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Andijon viloyati hududiy bo‘linmasi vakillari loyiha bo‘yicha o‘zlarining fikr va mulohazalarini bildirdilar.

So‘ng “Yuksalish” harakati viloyat bo‘limi rahbari Diyorbek Turg‘unov loyiha haqida batafsil ma’lumot berdi. Taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, loyihadan ko‘zlangan maqsadlarga erishilgan.

Bu haqda loyihada qatnashgan mahalla faol ayollari ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi.

Qirg‘izistondan kelgan mehmonlar ham loyiha haqidagi fikrlarini aytib o‘tdi va jamoat fondlari haqida batafsil tushuncha berdi.

-Kelgusi loyihalarimda andijonlik hamkasblar bilan hamkorlik qilishga kelishib oldik, - dedi «Qishloq maslahat xizmati» jamoat fondi vakili Kanikey Mirzayeva.

D.ABDUMAJIDOVA, “Adolat mezoni” muxbiri.

“Dolzarb 90 kun”

Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 49-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida 9228-harbiy qism xodimlari hamda maktab o‘quvchilari ishtirokida “Zakovat” intellektual bellashuvi tashkil etildi.

HARBIYLAR FARZANDLARI MAROQLI HORDIQ CHIQARDILAR

Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, harbiylar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish, shuningdek, bilim va tafakkurni sinovdan o‘tkazishdan iborat bo‘ldi.



Bellashuv jarayonida ishtirokchilar mantiqiy savollarga javob berish, tarixiy, madaniy va zamonaviy mavzularda bilimlarini namoyon etish orqali o‘z intellektual salohiyatini ko‘rsatdi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning farzandlari Qo‘rg‘ontepa tuman Madaniyat uyida Andijon viloyati Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari tomonidan namoyish etilgan “Jahldor quyoncha” nomli qo‘g‘irchoq spektaklini tomosha qilib, maroqli hordiq chiqardilar.

Bunday tadbirlar bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularda madaniy-estetik ta’limni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

T.ULMASOV, DXX CHQ harbiy xizmatchisi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Шаҳрихон кўчаси, 318-уйда яшаб, 2021 йил 2 август куни вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВ КОБИЛЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шохкўчаси, 13-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.М.Саломов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, тор Шерозий кўчаси, 1-уйда яшаб, 2020 йил 6 август куни вафот этган марҳум **IGAMBERDIYEV SHUHRAT RUSTAMOVICH**,

Андижон шаҳри, 2-кичик даҳа, 23-уй, 47-квартирада яшаб, 2021 йил 26 июль куни вафот этган марҳум **ТАДЖИХАЛИЛОВ АСКАР МАХАМАТОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Лермонтов кўчаси, 9-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Мамарасулова нотариал идорасига,

Хонобод шаҳар, Кампироввот МФЙ, Камолот кўчаси, 45-уйда яшаб, 2021 йил 3 октябрь куни вафот этган марҳум **NAZAROV KOXORJON XOLDAROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н. Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2021 йил 29 октябрь куни вафот этган марҳум **МАМАРАСУЛОВА ТУХТАХОН**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2015 йил 24 февраль куни вафот этган марҳум **YULDASHEV RAZIKDJON**,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 23 ноябрь куни вафот этган марҳум **УСМОНОВ АДИХАМЖОН**,

Андижон туманида яшаб, 2021 йил 21 сентябрь куни вафот этган марҳум **MUXTAROV DILMURAD MUKUMJANOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани Нўхатак МФЙ Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 6 июль куни вафот этган марҳум **YULDASHEV ABDURASHID KADIROVICH**,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2017 йил 29 апрель куни вафот этган марҳум **ISMOILOV BURXONIDIN IBRAYMJONOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Ботиробод МФЙ, Ойбек кўчаси, 23 уйда яшаб, 2022 йил 9 ноябрь куни вафот этган марҳум **ДАМИНОВ МУХАММАД ТУРСУНОВИЧ**,

Избоскан тумани, Куйганёр МФЙ, Мустақиллик шоҳкўчаси, 13-уйда яшаб, 2024 йил 9 июнь куни вафот этган марҳум **МИРЗААЛИМОВ УСМАНДЖОН МАМАДЖАНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Ўқчи МФЙ, Бешкал кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 30 январь куни вафот этган марҳум **АЗАМОВ ТУРСУНХУЖА ИНОМОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 18 апрель куни вафот этган марҳум **ТУХТАСИНОВ АЗИМЖОН**,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 31 январь куни вафот этган марҳум **ЖАМАЛОВ АШУРАЛИ АЗИМОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Норбўта МФЙ, Орият доно кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 30 декабрь куни вафот этган марҳум **AXMADALIYEV LUQMONJON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа шаҳар, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б. Б. Мамадалиев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Мустақиллик МФЙда яшаб, 2022 йил 5 июнь куни вафот этган марҳум **URMONOV AKROMJON XOLDAROVICH**,

Шаҳрихон тумани, Бахор МФЙда яшаб, 2025 йил 22 май куни вафот этган марҳум **АБДУКАДИРОВ АБДУКАХХОР**,

Шаҳрихон тумани, Бобочек МФЙда яшаб, 2024 йил 19 октябрь куни вафот этган марҳум **ОБИДОВ ХОШИМЖОН**,

Шаҳрихон тумани, Янги хаёт МФЙда яшаб, 2012 йил 21 июнь куни вафот этган марҳум **МАМАТҚУЛОВА САОДАТХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Байроқ МФЙда яшаб, 2012 йил 14 июль куни вафот этган марҳум **TURDALIYEV TURG‘UNBOY**,

Шаҳрихон тумани, Қалача МФЙда яшаб, 2020 йил 21 июль куни вафот этган марҳум **SOLIYEVA MARUZA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Маслаҳаттепа МФЙда яшаб, 2025 йил 28 март куни вафот этган марҳум **SARIMSAQOV POZILJON ERGASHEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

MATBUOT ANJUMANI

ISTE’MOLCHILARNING 55 FOIZI SUV HISOBLAGICHLAR ORQALI TO‘LOV QILMOQDA

“ANDIJON SUV TA’MINOTI” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI TOMONIDAN JORIY YILNING BIRINCHI YARMIDA VILOYATDA SUV TA’MINOTI BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR YUZASIDAN MATBUOT ANJUMANI O‘TKAZILDI.

Tadbirda ommaviy axborot vositalari, davlat, nodavlat tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari, blogerlar ishtirok etdi. Unda mutasaddilar tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida Andijon viloyatida aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta’minlash, oqova suv tarmoqlarini yaxshilash, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotlar berildi.

– Belgilangan davlat dasturlari doirasida joriy yilning birinchi yarmida 24 kilometr uzunlikdagi ichimlik suvi va 5 kilometr uzunlikda oqova suv tarmoqlari qurildi, - deydi “Andijon suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyat rahbari Dilshodbek Qo‘ldashev. – Shuningdek, 7 ta yangi inshoot foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 8 ming nafar aholi yashaydigan qator hududlar ilk bor ichimlik suvi tarmog‘iga ulandi, 12 ming nafar aholi yashaydigan hududlarda ichimlik suvi ta’minoti yanada yaxshilandi. Umuman, viloyatda ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 91,9 foizdan 92 foizga yetkazildi.

Tizimda xizmat ko‘rsatishda aniqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida joriy yilning birinchi yarmida 4 ming 809 nafar iste’molchi billing tizimiga ulanib, ushbu tizimga ulangan iste’molchilar soni 541,5 ming nafardan ortdi.

Viloyatda suv hisoblash uskunalarini o‘rnatish ishlari ham jadallik bilan olib borildi. Hisobot davrida 43 ming 62 ta yangi suv hisoblagichlar o‘rnatilib, o‘rnatilgan jami suv hisoblagichlar soni 293 ming 365 taga yetdi. Bu iste’molchilarning 55 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, anjumanda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 16,1 kilometr ichimlik suvi tarmog‘i, 36 ta nasos mukammal, 28,6 kilometr tarmoq va 74 ta nasos joriy ta’mirlandi. Shuningdek, turli hududlarga 40 ta energiya tejamkor nasoslar o‘rnatildi.



Anjumanda iste’mol qilingan suv uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash, iste’molchilarning qarzdorligini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar xususida ham atroflicha so‘z yuritildi. Joriy yilda suv ta’minoti sohasida belgilangan ishlar tizimli amalga oshirilganligi, kelgusida ham izchil davom ettirilishi qayd etildi.

Matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari xodimlari o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutasaddi va mutaxassislardan batafsil javob oldi.

M.MAMATQULOV,
tadbir ishtirokchisi.

Andijon tumanida yashovchi Fayzullo Ahmedov o‘ziga biriktirilgan 10 sotix yerdan foydalanish imkonini qo‘lga kiritdi-yu, niyati buzildi. Aslida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish orqali daromad topishi ko‘zda tutilgan bo‘lsada, u maydon atrofiga devor urib, hatto ikki xonali uy ham barpo etdi. Vaholanki, bu - qonunga mutlaqo zid.

YER MAYDONINI O‘ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLASHGA YO‘L QO‘YILMAYDI

— Andijon viloyatida joriy yiling birinchi yarmida bu kabi 3588 ta holatda 71,8 gektar yer maydoni o‘zboshimchalik bilan egallab olingani aniqlandi, — deydi Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i Fayoziddin Berdiqulov. — Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 3230 ta holatda yer maydonlari asl holatiga qaytarildi. Hozirda 101 ta holat sud tartibida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, 75 tasida jinoyat alomatlari mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birga, 4496 nafar huquqbuzarlarga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan va qonun doirasida choralar ko‘rilmoqda.

Mutaxassislarning ma’lum qilishicha, hududda o‘zlashtirilgan 71,8 gektar yer maydonidan o‘rinli foydalanilsa 7-8 milliard so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtirish mumkin edi. Ushbu raqamning o‘ziyoq noqonuniy xatti-harakatlar nechog‘li salbiy oqibatlarga olib kelishidan dalolatdir.

Saminjon HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.



JINOYAT JAZOSIZ QOLMAYDI

SOLIQ VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLARNI QASDDAN YASHIRGAN EDI...

Botir 2023-yildan buyon Andijon shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlardan birining rahbari lavozimida ishlab kelayotgan edi. U egallab turgan lavozimiga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyekt mansabdor shaxsi bo‘lgani holda, jinoyat sodir etish yo‘liga kirib, mansab mavqeidan foydalanib, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash orqali noqonuniy yo‘llar bilan daromad orttirishni o‘z oldiga maqsad qiladi. Ushbu g‘araz va past maqsadini bir o‘zi amalga oshira olmasligini ongli ravishda bilgani holda, bu kabi jinoyatlarni sodir etishga moyilligi bo‘lgan jamiyatning norasmiy rahbari Tolib bilan oldindan jinoiy til biriktirib, bir guruhga birlashadi. Botir jinoiy sherigining bevosita ko‘magida 241.507.915 so‘m byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni qasddan yashirib, bo‘yin tovlagan.

Botir O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 22-moddasida, “Davlat soliq xizmati organlarida hisobga turish, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni aniqlash, ularning hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lashi shart” ekanligi qat’iy belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, ushbu modda talablariga zid ravishda jamiyatning moliyaviy xo‘jalik faoliyati bo‘yicha shahar soliq inspeksiyasiga taqdim etgan hisobotlarida 2023-yil va 2024-yillar yakuni bo‘yicha juda ko‘p miqdordagi soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni qasddan yashiradi.

Botir o‘zining jinoiy harakatlarini davom ettirib, yuqoridagi jinoiy sherigining bevosita ko‘magida yana jinoyatga qo‘l uradi. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-noyabr kungi “Fiskal xotiraga ega bo‘lgan nazorat kassa mashinalarining qo‘llanishini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 306-sonli qarorlari talablariga zid ravishda 2023-yil davomida jamiyatning turg‘un savdo shahobchasi va fiskal modulli onlayn nazorat kassa mashinasi bo‘lmasada, 1.013.793.400 so‘mlik turli tovar mahsulotlarni naqd pulga sotib yuboradi. Sotuvdan tushgan naqd pul mablag‘larini nazorat kassa mashinasiga kirim qilmagan holda, jamiyatga xizmat ko‘rsatuvchi bank muassasasiga topshirmasdan, juda ko‘p miqdordagi savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzgan.

Botir o‘zining jinoiy harakatlarini davom ettiradi. Yana unga Tolib ko‘makka keladi. U jinoiy sherigining bevosita ko‘magida o‘zlariga qonun bilan belgilab berilgan mansab vakolatlariga loqaydlik bilan yondoshib, vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi “Xalq xo‘jaligida hisob kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas’uliyatini oshirish borasidagi chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 1154-PF-sonli Farmoni talablariga zid ravishda 2023, 2024-yillar uchun soliq va boshqa majburiy to‘lovlaridan jami 770.799.800 so‘m qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko‘rmaydi. Natijada boqimanda qarzdorlikni vujudga kelishiga sababchi bo‘ladi. Yuqoridagi xatti-harakatlari bilan davlat va jamoat manfaatlariga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazadi.

Albatta har qanday qing‘ir ish jazosiz qolmaydi. Jinoiy sheriklar jinoyati fosh bo‘ldi. Qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi sud majlisida yakun topdi.

Botir Ne’matov O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan bir qator jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topildi.

Unga nisbatan tayinlangan jazolarni qisman qo‘shish yo‘li bilan uzil-kesil 2 yil 2 oyga ishlash yoki o‘qish vaqtidan, shuningdek ish yoki o‘qish joyigacha borishi va uy-joyiga qaytib kelishi uchun zarur bo‘lgan vaqtdan tashqari qolgan vaqtda uy-joyidan chiqishni cheklash tarzidagi ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Jinoyat Kodeksining 62-moddasi tartibida, Botir Ne’matovning 2024-yil 21-noyabrdan 2025-yil 11-aprelga qadarli ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlangan 4 oy 21 kuni tayinlangan ozodlikni cheklash jazosidan chegirilib, o‘tash uchun 1 yil 7 oy 9 kunga ishlash yoki o‘qish vaqtidan, shuningdek ish yoki o‘qish joyigacha borishi va uy-joyiga qaytib kelishi uchun zarur bo‘lgan vaqtdan tashqari qolgan vaqtda uy-joyidan chiqishni cheklash tarzidagi ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Jasur SAYIDOV,
Shukrullo KUNDUZOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida nazorat boshqarmasi prokurorlari.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 04.08.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 04.08.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li